

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**AZXODJAYEVA ROZA ALTINOVNA**

**SOG‘LIQNI MUHOFAZA QILISHGA BO‘LGAN HUQUQ SOHASIDA  
JSTNING XALQARO STANDARTLARI: XALQARO HUQUQ VA MILLIY  
QONUNCHILIKNING O‘ZARO MUNOSABATI**

**12.00.10 – Xalqaro huquq**

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Azxodjayeva Roza Altinovna**

Sogʻliqni muhofaza qilishga boʻlgan huquq sohasida JSTning xalqaro standartlari:  
xalqaro huquq va milliy qonunchilikning oʻzaro munosabati.....3

**Азходжаева Роза Алтыновна**

Международные стандарты ВТО в области права на охрану здоровья:  
соотношение международного права и национального законодательства....31

**Azkhodjaeva Roza Altinovna**

International WTO standards in the field of the right to health protection:  
relationship between international law and national legislation ..... 61

**Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....66

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**AZXODJAYEVA ROZA ALTINOVNA**

**SOG‘LIQNI MUHOFAZA QILISHGA BO‘LGAN HUQUQ SOHASIDA  
JSTNING XALQARO STANDARTLARI: XALQARO HUQUQ VA MILLIY  
QONUNCHILIKNING O‘ZARO MUNOSABATI**

**12.00.10 – Xalqaro huquq**

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2018.4.DSc/Yu88 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiy ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Saidov Akmal Xolmatovich**  
akademik, yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Toshev Boboqul Norkobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Umaraxunov Irkin Mirzaxidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Xakimov Ravshan Tulkunovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi  
Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 31-may soat 08:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1259-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 13-may kuni tarqatildi.

(2024-yil 13 maydagi 6-raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.S. Gulyamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**D.N. Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

**Sh.X. Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda sog‘liqni saqlash muammolari va uning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishi bilan bog‘liqligi har bir davlatni va jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan hozirgi kundagi eng muhim muammolarning biri hisoblanadi. Barcha insonlar uchun salomatlik – ko‘plab xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Jahon savdo tashkiloti (JST)ning oldiga qo‘yilgan maqsaddir. JSST hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili 5 millionga yaqin odam mikroblarga chidamli mikroorganizmlar tufayli vafot etadi. “Har kuni 1 600 000 kishi xavfli oziq-ovqatlarni iste‘mol qilish natijasida kasal bo‘lib qoladi. Har kuni 5 yoshgacha bo‘lgan 340 nafar bola oldini olish mumkin bo‘lgan oziq-ovqat yuqadigan kasalliklardan vafot etadi.<sup>1</sup> 2 milliardga yaqin odam muhim dori-darmonlarga ega emas, va dunyo aholisining 80% deyarli kirish imkoni bo‘lmagan mamlakatlarda yashaydi nazorat ostida og‘riq qoldiruvchi vositalar<sup>2</sup>. Dunyo miqyosida 2021 yilda bezgak bilan kasallangan 84 ta davlatda taxminan 247 million holat qayd etilgan, bu 2020 yilga nisbatan 2 million holatga oshgan. 2022-yilda dunyo bo‘ylab taxminan 10,6 million sil kasali qayd etilgan, jumladan, 5,8 million erkak, 3,5 million ayol va 1,3 million bola”<sup>3</sup>. Bularning barchasi sog‘liqni saqlash inqirozi misli ko‘rilmagan darajada ko‘lamga ega bo‘lib, nafaqat insonlarning sog‘lig‘iga, balki iqtisodiyot va butun jamiyatga sezilarli ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquqni ta‘minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jahonda bugungi kunda sog‘liqni saqlash sohasida shaxsning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga bo‘lgan huquqini ta‘minlash masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda JST doirasida sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan huquqni ta‘minlash muammolarini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega, chunki bugungi kunda sog‘liqni saqlash iqtisodiyot va tijorat bilan, xususan dorivor preparatlar, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari, tibbiyot xizmatlarini ta‘minlash singari masalalar bilan bevosita bog‘liq. Shu sababdan, xalqaro hamkorlik va sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro va milliy strategiyalarni ishlab chiqish, shuningdek inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish ko‘proq ahamiyatga ega. Bunday vaziyatda JSTning xalqaro standartlari va sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan huquqni ta‘minlash sohasidagi milliy qonunchilikning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta‘siri muammosini har tomonlama tahlil qilish zarurati tug‘iladi. Xalqaro savdo huquqining huquqiy bazasi va sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan huquqni ta‘minlash sohasidagi xalqaro standartlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu ko‘pincha xalqaro savdoni

<sup>1</sup> Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti. Oziq-ovqat xavfsizligi. <https://www.who.int/ru/news-room/factsheets/detail/food-safety>

<sup>2</sup> BMT GA Inson huquqlari kengashining ellik uchinchi sessiyasi 2023 yil 19 iyun - 14 iyul. Har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga erishish huquqi kontekstida dori vositalari, vaktisinalar va boshqa sog‘liqni saqlash mahsulotlaridan foydalanish bo‘yicha yaxshi amaliyotlar to‘plami. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi hisoboti.

<https://documents.un.org/doc/undoc/gen/g23/069/16/pdf/g2306916.pdf?token=nKjyaCXKexf8xRjOTK&fe=true>  
<sup>3</sup> World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals. © World Health Organization 2023. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240074323>

rivojlantirishga ko'maklashish istagi va aholi salomatligini muhofaza qilish zarurati o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga olib keladi. Bularning barchasi ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy jihatlariga va JSTga kirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida "Iqtisodiyotimizni erkinlashtirish yo'lidagi yana bir ustuvor vazifa yaqin kelajakda Jahon savdo tashkilotining to'laqonli a'zosi bo'lishdir"<sup>1</sup> deb ta'kidlagan edi. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ijtimoiy soha rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Ushbu Strategiya aholi salomatligini saqlash uchun qulay sharoitlar yaratish, viloyat, tuman va shaharlarni ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan qamrab olish, shuningdek davlat tibbiy sug'urta tizimini yo'lga qo'yish, jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini tatbiq etishni nazarda tutadi. Taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlarini jadallashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari va intellektual mulkni himoya qilish sohalaridagi milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti kelishuvlari talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini Jahon savdo tashkiloti qoidalari, normalari va kelishuvlariga muvofiqlashtirishni belgilab beradi, bu esa ushbu sohani o'rganish uchun yana bir asosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 7-dekabrda PF–5590-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, «2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi», O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni (1996), "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni (1997), "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni (2015), "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunini bajarishga shuningdek, ushbu yo'nalishdagi tegishli qonun hujjatlarini takomillashtirishga dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqi. // <https://president.uz/ru/lists/view/6677>

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>1</sup>. Sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq sohasida JST xalqaro standartlarining o'ziga xos jihatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, University of Toronto (UofT) - Faculty of Law (Kanada), Georgetown University Law Center (AQSH), Graduate Institute of International and Development Studies (Shveysariya), Cambridge University Faculty of Law (Buyuk Britaniya), University of Melbourne Law School (Avstraliya), Columbia University - Columbia Law School (AQSH), University of Amsterdam - Amsterdam Law School (Niderlandiya), National Law University (Hindiston), University of Viyenna (Avstriya), Oxford Brookes University - School of Law (Buyuk Britaniya), Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (universiteti) (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Federatsiyasi TIV Diplomatik akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi), Belarus davlat universiteti (Belorussiya) va boshqalar.

Sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq borasida JST xalqaro standartlari sohasida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: xalqaro huquqda sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqning asosiy konsepsiyalari shakllantirilgan (Harvard College, Columbia University, Cambridge University Faculty of Law), JSTning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligining ahamiyati asoslantirilgan (Oxford University Faculty of Law, Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti, Rossiya Federatsiyasi TIV Diplomatik akademiyasi), sog'liqni saqlash sohasida xalqaro standartlarning shakllanishida BMTning o'rni asoslantirilgan (Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti, Rossiya Federatsiyasi), sog'liqqa bo'lgan huquqning xalqaro huquqiy tartibga solish (Rossiya xalqlar do'stligi universiteti, Rossiya Federatsiyasi), sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlashning yo'llari ishlab chiqilgan, shuningdek tibbiyot huquqini rivojlantirishning konseptual masalalari o'rganilgan (Oxford University Faculty of Law, Buyuk Britaniya), va boshqa masalalar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda globalashuv sharoitida sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash sohasida, ayniqsa pandemiya munosabati bilan bir qator ustuvor yo'nalishlarda, xususan, sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq sohasining ko'plab jihatlari qayta ko'rib chiqishga olib keladigan zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarni o'rganish hamda xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan samarali choralarni ishlab chiqish; sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqning asosiy konsepsiyalari; JSTning xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligining ayrim masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasida JST doirasida sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan alohida qiziqish o'yg'otuvchi ishlar orasida O'zbekistonlik olimlardan A.X. Saidov, N.E. Gafurova,

---

<sup>1</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharhi: [www.hagueacademy.nl](http://www.hagueacademy.nl), [www.law.ox.ac.uk](http://www.law.ox.ac.uk), [www.law.cam.ac.uk](http://www.law.cam.ac.uk), [www.law.yale.edu](http://www.law.yale.edu), [www.bu.edu](http://www.bu.edu) > law, [www.en.uw.edu.pl](http://www.en.uw.edu.pl), [www.canberra.edu.au](http://www.canberra.edu.au), [www.cscs.sas.upenn.edu](http://www.cscs.sas.upenn.edu), [www.mgimo.ru](http://www.mgimo.ru), [www.dipacademy.ru](http://www.dipacademy.ru), [www.kpfu.ru](http://www.kpfu.ru), [www.bsu.by](http://www.bsu.by), [www.kaznu.kz](http://www.kaznu.kz), [www.uwed.uz](http://www.uwed.uz) va boshqalar

G. Yuldasheva, A.E. Mirsaidov, X.S. Islamxodjaev, A.M. Abdullaev, A.L. Axmedov, I.Sh. Tolibov, B.N. Toshev, D.A. Asadov, M.S. Abdullaxodjaev va boshqalarning ishlarini qayd etish mumkin.

N.E. Gafurovaning tadqiqotlarida<sup>1</sup> sog‘liqqa bo‘lgan huquqni ta‘minlash tibbiyot huquqining tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Tibbiyot huquqida sog‘liqqa bo‘lgan huquqning xalqaro-huquqiy jihatlari, sog‘liqqa bo‘lgan huquq bo‘yicha xalqaro-huquqiy normalarning O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiyasi (joriy qilinishi) tadqiq qilingan.

A.E. Mirsaidovning ishlarida<sup>2</sup> O‘zbekistonning JSTga kirishining xalqaro-huquqiy jihatlari, xususan JST asosiy normalari va tamoyillari o‘rganilgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning kelgusida samarali amalga oshishi uchun qulay zamin yaratish nuqtai-nazaridan tahlil qilinadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarining olimlari – A. X.Abashidze, S.Ya. Chikin, G. I. Saregorodsev, D. G. Bartenev, N.P.Silchenko, A. A. Belousova, E. I. Karkishenko, V. G. Borisova-Jarova va boshqalar tomonidan masalaning xalqaro-huquqiy jihatlari o‘rganilgan.

Xorijda Brigit C.A., Toebe B., X. Pol, L.A. Ertel, Jon Tobin, M. Sasser, Lessi London, A.D. Lopez, D. Basal, R. Djekson va boshqa hozirgi zamon olimlarining ishlari alohida ahamiyatga ega.

JST faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek JSTning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi masalalari D. Karro, P. Jyuyar, V.M. Shumilov, S.A. Grigoryan, A.B. Sepov kabi olimlarning ishlarida tadqiq qilingan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlarida JST doirasida sog‘liqni saqlashni xalqaro huquqiy tartibga solish, uni amaliyotga joriy qilish xalqaro huquqiy tartibga solish masalalari keng qamrovli ilmiy ish sifatida o‘rganilmaganligi bu sohadagi xalqaro shartnomalarning ro‘yobga chiqarilishini o‘rganish, tahlil qilish va takomillashtirish ehtiyojini mavjudligini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy-ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda “Tibbiyot huquqida implementatsiya mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi loyiha natijalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** JST kelishuvlariga muvofiq sog‘liqni saqlash huquqini ta‘minlash masalalarini takomillashtirish bo‘yicha xalqaro huquqiy va milliy normalarni tahlil qilish asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan huquqning asosiy nazariy konsepsiyalarini o‘rganish va xalqaro huquqda sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan huquqning zamonaviy tamoyillarini aniqlash;

sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan huquqni ta‘minlash sohasida xalqaro standartlarning shakllanish bosqichlarining tasnifi va tushunchasini tadqiq qilish;

---

<sup>1</sup> *Гафурова Н. Э.* Актуальные вопросы обеспечения права на здоровье в медицинском праве. – Т., 2015.

<sup>2</sup> *Мирсаидов А.Э.* Международно-правовые аспекты вступления Узбекистана в ВТО в контексте обзора законодательства в области торговли услугами. Международное частное право – 2019. №4 (109).



JST bitimlari va sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash masalalari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni o'rganish;

sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash sohasida xalqaro tashkilotlar (JSST va FAO) bilan JST hamkorligining huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

JST doirasida dori va farmatsevtik preparatlar, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini xalqaro-huquqiy tartibga solish muammolarini tahlil qilish;

yuqumli kasalliklar va COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy masalalarini o'rganish;

sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq sohasida xalqaro-huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning ilmiy-nazariy masalalarini tadqiq qilish;

sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash sohasida xalqaro-huquqiy normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zoligi jarayonida sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha huquqiy va amaliy takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** JST xalqaro standartlarini tatbiq qilish va ularni O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga uyg'unlashtirish jarayonida sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq sohasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** xalqaro savdoni tartibga solishda sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash sohasiga oid xalqaro shartnomalar, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari, JST bitimlari va boshqa xalqaro tashkilotlarning hujjatlari, sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq sohasidagi xorijiy va milliy qonunchilik, ularni ta'minlash amaliyoti hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy tahlilning tarixiy, mantiqiy, qiyosiy, kompleks va tizimli usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Har kim sog'lig'ini muhofaza qilish va malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lib, sog'liqqa bo'lgan huquq – tibbiy xizmatlar, dori-darmonlar, xavfsiz ichimlik suvi, xavfsiz oziq-ovqat, tibbiyot sohasidagi ta'lim va ma'lumotlar, ayniqsa onlayn tizimlar orqali va sanitariya sharoitlarini yaratishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilikda mustahkamlangan huquq va erkinliklar yig'indisidir” degan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda milliy va mintaqaviy shartlarni hisobga olgan holda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sifatli ovqatlanishni yaxshilash maqsadida a'zo davlatlar va barcha manfaatdor taraflarni kompleks, muvozanatlashgan va yaxlit yondashuvlarni qo'llashga, tarmoqlararo manfaatdor taraflarni jalb qilishga asoslangan barqaror oziq-ovqat xavfsizligi tizimlarini yaratishning yangi mexanizmi ishlab chiqilgan;

Sog'liqni saqlash tizimida jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasini ta'minlash, belgilangan qamrovga erishish maqsadida sog'liqni saqlash tizimining barqarorligini mustahkamlash huquqiy choralarni ko'rish, inson

huquqlari sohasida sog'liqni saqlashga bo'lgan xalqaro kelishilgan maqsadlarga erishish zarurati asoslantirilgan;

Energetik ichimliklar o'z tarkibida 150 mg/l dan ortiq miqdorda kofein va insonga tetiklashtiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun yetarli miqdordagi boshqa komponentlarni o'z ichiga olganligi sababli mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ushbu maqsadlar uchun belgilangan hududlarda energetik mahsulotlari savdosida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy asosni yaratish zarurati asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash normalari va qoidalarining bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari ishlab chiqilgan;

Tadqiqot asosida Jahon savdo tashkiloti va unga a'zo davlatlarning ko'p tomonlama savdo tizimi faoliyatiga samarali yordam berish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi faoliyati barqarorligini qo'llab-quvvatlash va xar bir insonning yetarli darajada ovqatlanish va ustuvor huquqi bo'lmish ochlikdan ozod bo'lish huquqiga muvofiq oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi xalqaro huquqiy hamkorlikni barcha darajalarda mustaxkamlash asoslantirildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

zamonaviy xalqaro huquqda sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq tushunchasining mohiyati ochib berilgan;

sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ishlab chiqilgan;

JST doirasida sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqni ta'minlash, bu borada JSTning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi choralari ishlab chiqilgan;

JSTga a'zo davlatlarning xalqaro savdo va sog'liqni saqlash sohasida amaliy tajribaga ega bo'lgan kadrlar salohiyatini oshirish zarurligi asoslab berilgan;

oziq-ovqat xavfsizligi sohasida mamlakatlarning ishtiroki va ushbu sohaga sarmoya kiritishi lozimligi, shuningdek barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali muvofiqlashtirishni ta'minlash uchun hukumatlarga ichki salohiyatni yaratish zarurligi asoslantirilgan;

JST kelishuvlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati va tashkilotning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha tashabbuslar borasida JSST va FAO bilan hamkorlikdagi xalqaro muvofiqlashtiruvchi sifatidagi roli asoslab berilgan;

global pandemiyalarda xalqaro savdoni erkinlashtirish uchun "teskari istisnolar" kiritishning zarurati asoslangan. GATS bo'yicha davlatlar tomonidan cheklovlarning kiritilishi COVID-19 bilan kurashda salbiy natijalarga olib kelishi mumkin;

COVID-19 koronavirus infeksiyasi davrida oziq-ovqat ta'minoti, savdo bilan uzluksiz ta'minlash maqsadlarida global darajada kuchlarni birlashtirish, shuningdek, JST, FAO va JSST bilan hamkorlik va o'zaro harakatni faollashtirish zarurati asoslangan;

texnika xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson hayoti xavfsizligi va salomatligi bilan bog'liq ma'lum qoida va tartiblarni o'rnatuvchi vazirliklar bilan

birgalikda o'zaro harakat qilish uchun Texnik tartibga solish agentligi qoshida JST axborot markazini tashkil etish zarurati asoslantirilgan. Markazni tashkil etishning maqsadi manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslarga axborot markazining faoliyat doirasiga kiruvchi sohalarga oid amaldagi qonunlar, ma'muriy qoidalar va buyruqlar to'g'risida ma'lumot olish uchun maslahat berish hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan holda amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif va tavsiyalar, ilmiy-nazariy xulosalar ilmfan, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish, JST qonunchiligining tegishli normalarini izohlash, inson huquqlari, milliy qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularni amalga oshirish JST kelishuvlariga muvofiq sog'liqni saqlash huquqi masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

sog'liqni muhofaza qilishning va malakali tibbiy xizmat ko'rsatishning huquqiy asoslari, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish hamda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilish zaruratiga oid takliflar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasi 1, 3, 5-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari bo'yicha qo'mitasining 2023 yil 16 sentabrdagi 04/7-12-63-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi aholisining salomatlikka bo'lgan huquqini ta'minlashga, tibbiy sug'urtaning har xil turlarining rivojlanishiga zamin yaratgan;

yetarli oziq-ovqatga ega bo'lish huquqiga muvofiq yetarli miqdorda xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlanishni kuchaytirishga taalluqli xalqaro-huquqiy asoslarni yaratishga oid taklif BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2021 yil 17 dekabrda "Qishloq xo'jaligining rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish" 76/222-son rezolyutsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi Doimiy vakolatxonasining 2022 yil 2 martdagi 035/227-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish masalalariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori va erishish mumkin bo'lgan darajasiga bo'lgan huquqini ta'minlashga oid taklif BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2020 yil 19 dekabrda "Ruhiy salomatlik va inson huquqlari" 43/13-son rezolyutsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro

tashkilotlardagi Doimiy vakolatxonasi 2022 yil 2 martdagi 035/227-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi inson salomatligini muhofaza qilish sohasidagi vazifalarga erishishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

davlat hokimiyati idoralari tomonidan energetik mahsulotlarni sotish maqsadlari uchun ajratilgan joylarda savdo qilishda o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish zarurati to'g'risidagi taklif 2019 yil 9 yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Jamoat tartibini ta'minlashning mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi ba'zi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zRQ-514-son Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'ligini saqlash masalalari bo'yicha qo'mitasining 2021 yil 2 iyuldagi 05/3-11-59-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi energetik mahsulotlar savdosida voyaga yetmaganlar manfaatlarini himoya qilishga zamin yaratgan;

oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha norma va qoidalarni bajarish ustidan fuqarolar, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan jamoatchilik nazoratni amalga oshirish bo'yicha huquqiy asoslarni ishlab chiqishning zaruratiga oid takliflar 2019 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Jamoat nazoratini kuchaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi ba'zi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zRQ-559-son Qonunining 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'ligini saqlash masalalari bo'yicha qo'mitasining 2021 yil 2 iyuldagi 05/3-11-59-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi fuqarolar, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha norma va qoidalarni bajarish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha mas'uliyatini oshirishga xizmat qilgan;

Jahon savdo tashkiloti va unga a'zo davlatlarning ko'p tomonlama savdo tizimi faoliyatiga samarali yordam berish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi faoliyati barqarorligini qo'llab-quvvatlash va xar bir insonning yetarli darajada ovqatlanish va ustuvor huquqi bo'lmish ochlikdan ozod bo'lish huquqiga muvofiq oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik oid taklifi BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2021 yil 17 dekabrda "Qishloq xo'jaligining rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish" 76/222-son rezolyutsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi Doimiy vakolatxonasi 2022 yil 2 martdagi 035/227-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi xalqaro maydonda Jaxon savdo tashkiloti va davlatlar o'rtasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga zamin yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 8 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish, shu jumladan 1 ta monografiya, 30 ta ilmiy maqola (10 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 240 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha chet el ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Xalqaro huquqda sog'liqni saqlash huquqini shakllantirish va rivojlantirishning tarixiy va nazariy asoslari”** deb nomlangan **birinchi bobida** zamonaviy xalqaro ommaviy huquq tizimida sog'liqni muhofaza qilish huquqining tarixiy-nazariy masalalari batafsil tahlil qilingan, asosiy tushunchalarning mazmuni aniqlab olingan, sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq tushunchasining mazmunini aniqlash bo'yicha turli yondashuvlar va konsepsiyalar, uning umum qabul qilingan inson huquqlari tizimidagi o'rni tahlil qilingan.

Sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquqning rivojlanish tarixi epidemiyalarning tarqalishi va bir davlatdan boshqasiga yuqimli kasalliklarning tarqalishining oldini olishga qaratilgan chegaralarda karantin tizimi tadbirlarini ishlab chiqishdan boshlanadi. Salomatlikning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan biri sifatida tan olinishi 1945-yili San-Fransiskoda bo'lib o'tgan xalqaro tartibot bo'yicha BMT anjumanidan boshlandi.

Xalqaro huquqda sog'liqqa bo'lgan huquqning qat'iy mustahkamlanishida 1946-yili BMT tashabbusi bilan tuzilgan Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) Ustavining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Sog'liqqa bo'lgan huquq 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida alohida huquqiy maqomga ega bo'ldi. Mazkur Paktning

12-moddasi unda ishtirok etayotgan mamlakatlarga har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori erishiladigan darajasiga bo'lgan huquqini tan olishni kafolatlaydi. Ishtirokchi davlatlar ushbu huquqning to'liq amalga oshirilishi uchun choralar qabul qilishi kerak, shu jumladan o'lik tug'ilishlar, bolalar o'limini qisqartirish, bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash, gigienaning barcha jihatlarini yaxshilash, epidemik, endemik, kasbiy va boshqa kasalliklarning oldini

olish va emlash uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rishi, kasallik yuz bergan holatda tibbiy yordam va tibbiy parvarishni ta‘minlashlari zarur.

Shuningdek, hozirgi bosqichda dunyoda sog‘liqni saqlashning holatini ko‘rib chiqishda dissertant sog‘liqni saqlash rivojlanishining quyidagi yangi tendensiyalarini ajratadi: sog‘liqni saqlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish, sog‘liqni saqlashning globallasuvi, aholining ruhiy salomatligi rolining o‘sishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi, sog‘liqni saqlash sohasida davlat – xususiy sheriklikni rivojlantirish.

Professor Jon Tobinning fikricha, “inson sog‘lig‘i va huquqlari o‘rtasidagi aloqa ko‘p yillar davomida tan olib kelinmoqda. Mazkur aloqa u yoki bu darajada fuqarolik jamiyati subyektlari, olimlar, tibbiyot xodimlari, yuristlar va sudlar tomonidan bir nechta yurisdiksiyalarda, siyosatchilar va xalqaro muassasalar tomonidan mahalliy va global darajada salomatlikka oid tengsizlik muammolarini hal etish uchun instrument sifatida qabul qilingan”.

Huquqni himoya qilish yondashuvi vakili bo‘lgan Lesli London salomatlikka oid uchta ahamiyatli jihatni ta‘kidlaydi:

fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning bo‘linmasligi;

jarayonda aholining zaif qatlamlarining faol ishtiroki;

himoya va erkinlik uchun mas‘uliyatni o‘rnatishda inson huquqlarining normativ roli.

Shuningdek, ba‘zi tadqiqotchilar xalqaro huquqda ifodalangan sog‘liqqa bo‘lgan huquq inson huquqlari nazariyasi doirasida o‘zini oqlay olishi mumkinmi, yoki bu, ba‘zi sharhlovchilarning taklifiga ko‘ra, xalqaro huquq tomonidan tan olingan inson huquqlari ro‘yxatidan chiqarilishi lozim bo‘lgan oddiy “ma‘nosiz konsepsiya” hisoblanadimi, degan masalani aniqlashga harakatlar qilmoqda.

Bizning fikrimizcha, sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan huquq – bu xalqaro-huquqiy hujjatlarda va milliy qonunchilikda mustahkamlangan huquq va erkinliklarning majmuasi bo‘lib, ular tibbiy xizmatlar, dori preparatlari, xavfsiz ichimlik suvi, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari, tibbiyot sohasida axborot va ta‘lim, ayniqsa onlayn tizim orqali va sanitar sharoitlarni yaratishni ta‘minlashga qaratilgan.

Shuni ta‘kidlash kerakki, sog‘liqni saqlash huquqiga erishish oziq-ovqat, uy-joy, mehnat, ta‘lim, ma‘lumot olish huquqi kabi boshqa inson huquqlarini amalga oshirishga bog‘liq. Davlatlarning sog‘liqni saqlash huquqini qo‘llab-quvvatlash majburiyati, shu jumladan, ushbu maqsadni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun mavjud resurslarni maksimal darajada oshirish, BMTning universal davriy tekshiruvi kabi turli xalqaro inson huquqlari mexanizmlari orqali ko‘rib chiqiladi.

Ta‘kidlash joizki, 2000-yilning sentyabrida qabul qilingan Mingyillik Deklaratsiyasining sakkizta maqsadidan 3 tasi bevosita salomatlik masalalariga tegishlidir: ona salomatligini muhofaza qilishni yaxshilash, yuqimli bo‘lmagan kasalliklar bilan kurash va bolalar o‘limini qisqartirish.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari asosida 2015-yilning 25-sentabrida Barqaror rivojlanish sammitida BMTga a‘zo-mamlakatlar 2030-yilgacha bo‘lgan davrda

barqaror rivojlanish sohasida kun tartibini qabul qilishdi, u 17 maqsad va 169 vazifani o'z ichiga oldi . Sog'liqni saqlash masalalari Barqaror rivojlanish maqsadlarining uchtasida belgilangan.

2018 yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi hukumati monitoring va amalga oshirishni osonlashtirish uchun 16 ta milliy Barqaror rivojlanish maqsadlar, 125 ta vazifa va 206 ta indikatorni tasdiqladi. 2022-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi hukumati 2030-yil davrida barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni tasdiqladi

**“Jahon savdo tashkilotining sog'liqni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy faoliyat: nazariy va amaliy jihatlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida muallif JSTning ta'sis etilishi haqida bitimni tahlil etadi, JSTning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi jihatlarini ochib beradi va JST doirasida nizolarni hal qilish mexanizmi va amaliyoti haqida ma'lumot beradi.

JSTning rivojlanish tarixi tahlilida muallif ikkita asosiy: “tarixiy” va “zamonaviy” bosqichni ajratadi. Tarixiy bosqich JSTning tuzilishiga intilishdan boshlanadi. 1947-yili Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitim (GATT) – xalqaro savdoning kelishilgan qoidalarini o'rnatuvchi ko'p tomonlama shartnoma ishlab chiqildi.

Ikkinchi – zamonaviy bosqich Urugvay raundidan boshlanadi. 1986-1994 yillardagi GATT ishtirokchi-davlatlarining ko'p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvay raundi chog'ida qator bitimlar imzolandi, ular JSTni tuzish uchun yuridik baza bo'ldi.

JST ustuvor maqsadlariga:

birinchidan, a'zo mamlakatlarda insonlar turmush darajasini oshirish;  
ikkinchidan, to'liq bandlikni va talabni kengaytirishni ta'minlash;  
uchinchidan, ishlab chiqarishni va tovarlar bilan savdoni kengaytirish;  
to'rtinchidan, xizmatlar sohasida savdoning kengayishi;  
oltinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish kiradi.

JST ma'lum boshqaruv tamoyillariga asoslangan: kamsitmaslik, erkin savdo, ochiq, adolatli raqobat va hokazo.

Marrakesh bitimi Urugvay raundi kelishuvlari va barcha bitimlarini amalga oshirish maqsadida yagona institutsional va tashkiliy mexanizmni ta'sis qiladi.

G.M. Velyaminovning nuqtai nazariga ko'ra, hozirgi vaqtda JST jahon miqyosidagi xalqaro savdoning huquqiy sharoitlari, tamoyillari va me'yorlarini ishlab chiqishning yagona real markazi hisoblanadi.

JST huquqi bo'yicha xalqaro-huquqiy adabiyotni o'rganish shuni ko'rsatadiki, yuridik adabiyotlarda JST huquqini aniqlash bo'yicha yagona yondashuv yo'q.

V.M. Shumilovning fikricha, JST huquqi JST ta'sis etilishi to'g'risidagi Bitim va JST idoralari tomonidan qabul qilingan boshqa hujjatlarni o'z ichiga oladi, global savdo huquqi tartibotini ta'minlaydi.

Xalqaro savdo huquqi huquqiy bazasi va sog'liqni saqlash bo'yicha xalqaro standartlar o'rtasida ko'plab o'zaro bog'liqliklar mavjud, u ko'pincha xalqaro savdoni rivojlantirishga ko'mak berishga intilish va aholi salomatligini muhofaza qilish zarurati o'rtasida qarama-qarshiliklarga olib keladi.

Dissertant ikkinchi bobda JSTning sog'liqni muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar (FAO, JSST) bilan hamkorligiga asosiy e'tiborni qaratadi, chunki ushbu tashkilotlar uchun sog'liqni saqlash va xalqaro savdo masalalari katta ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, JSST uchun JSTning to'rtta bitimi: 1995-yilgi Xizmatlar savdosi haqidagi Bosh bitim (GATS); 1995-yilgi Sanitariya va fitosanitariya choralari qo'llash haqidagi Bitim (SFS); 1995-yilgi Savdoda texnik to'siqlar haqidagi Bitim (TBT); 1995-yilgi Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari haqidagi Bitim (TRIPS) alohida ahamiyatga ega, ular aholi salomatligini muhofaza qilishga ulkan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

JST va JSST yaqin hamkorlikda ishlaydi va bir nechta sohalarda faoliyatni amalga oshirishda kuchlarini safarbar etmoqda. Ikki tashkilot ham yuqori siyosiy darajada sog'liqni saqlash va savdo masalalarini qarab chiqishadi. Tashkilotlar texnik darajada har xil seminarlar, misol uchun, dorilarga tabaqalashtirilgan holda narx belgilash va intellektual mulkning roli bo'yicha o'tkazadi. Ikkala tashkilotning roli va maqsadlari turlicha bo'lishiga qaramasdan mavjud salohiyat bir-birlarining ishini to'ldirishga imkon beradi.

Rasmiy majlislardan tashqari, JST va JSST xodimlari texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida bir yoki ikki muassasa tomonidan tashkil qilingan mintaqaviy yoki davlatlar kengashlarida ishtirok etishadi. Misol uchun, JSST FAO bilan birgalikda SFS talablariga muvofiq davlatlarga ko'mak ko'rsatadi, kasalliklarning oziq-ovqatdan kelib chiqishi tavakkali, nazoratni tahlil qilishga o'qitadi, oziq-ovqat mahsulotlari haqidagi qonunchilikni dolzarblashtirishga va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini oshirishga ko'maklashadi.

Sog'liqni muhofaza qilish sohasida Jahon Savdo Tashkilotining Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti bilan hamkorligi tahlili uning to'rtta yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishini ko'rsatdi.

JST va JSST hamkorligining birinchi yo'nalishi – intellektual mulk sohasi (TRIPS). Ta'kidlash joizki, JST Kotibiyati intellektual mulk masalalari bo'yicha JSST bilan yaqindan hamkorlik qiladi, u jamoat sog'ligini saqlash bilan, xususan jamoat sog'ligini saqlash, innovatsiyalar va intellektual mulk bo'yicha JSSTning hukumatlararo ishchi guruhida va kontrafakt tibbiyot mahsulotlari bilan kurashda (IMPAST) JSST xalqaro maqsadli guruhida kuzatuvchi sifatidagi ishtiroki yo'li bilan bog'liq.

Hamkorlikning ikkinchi yo'nalishi – oziq-ovqat mahsulotlari va hayvonotlar va o'simliklar salomatligi xavfsizligi standarti. SFS bo'yicha JST Bitimi sanitar va fitosanitar choralarni optimal muvofiqlashtirish uchun a'zo davlatlar, xalqaro standartlar yoki ilmiy asoslangan tavsiyalarni qo'llash zarurligini belgilaydi.



Hamkorlikning uchinchi yo‘nalishi – savdoda texnik to‘siqlar (TBT). TBT va SFS haqidagi bitimlarga muvofiq, salomatlikni himoya qilish uchun tartibga soluvchi choralarni qabul qilish siyosatning qonuniy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Hamkorlikning to‘rtinchi yo‘nalishi – xizmatlar (GATS). Tibbiy xizmatlar bilan xalqaro savdo boshqa barcha xizmatlar kabi GATS ta’sirida bo‘ladi.

Sog‘liqni muhofaza qilish sohasida JST va FAO o‘zaro harakatining muhim zarurati oziq-ovqat xavfsizligi masalalari va sog‘liqni saqlash masalalarining chambarchas bog‘liqligidan kelib chiqadi, chunki kambag‘al rivojlanayotgan davlatlarda aholi keng qatlamlarining muntazam ovqatni to‘yib yemasligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning salomatligi holatida ko‘rinadi. FAO oziq-ovqat sanoati sohasida ichki qonunchilikdan tortib laboratoriya testidan o‘tkazish va tegishli inspeksiyalargacha bo‘lgan milliy va mintaqaviy darajalarda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimining barcha jihatlarini qamrab oladigan loyihalarning katta miqdorini amalga oshirishi ma’lum. FAO va JST oziq-ovqat xalqaro savdosini sanitar, fitosanitar va oziq-ovqat standartlariga muvofiq xalqaro-huquqiy tartibga solish bo‘yicha o‘zaro harakatini yo‘lga qo‘ydi.

FAO va JST birgalikda ishlab chiqqan oziq-ovqat standartlari va savdoning xalqaro tizimi Barqaror rivojlanish maqsadlarining ochlikni yengib o‘tish, oziq-ovqat, ovqatlanish xavfsizligi va qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi bo‘yicha 2-maqsadi; sog‘lom hayot tarzi va farovonlikka oid 3-maqsadi; iqtisodiy o‘rish, bandlik va mehnat bo‘yicha 8-maqsadi va barqaror rivojlanish manfaatlaridan global sheriklikni mustahkamlash bo‘yicha 17-maqsadiga erishishga hissa qo‘shadi .

Shuningdek, ikkinchi bobda JST doirasida nizolarni hal qilish mexanizmi va amaliyoti qarab chiqilgan. JSTning institutsional tuzilishida asosiy o‘zgarishlardan biri nizolarni hal qilish tartibotining o‘rnatilishi bo‘ldi, u 1947-yilgi GATT mexanizmi bilan solishtirganda ma’lum o‘zgarishlarni boshdan kechirdi.

JST nizolarni hal qilish tartiboti GATTning avvalgi tizimiga qaraganda bir qancha aniq tuzilish va muvozanatlashtirilgan mexanizmga ega va nizolarni tartibga solishga butun unifikatsiyalangan yondashuvga va yechimlarni qabul qilishning bir xil protsedurasiga yo‘naltirilgan. Mohiyatan ushbu tizim JST shartnoma-huquqiy hujjatlarini qo‘llashga asoslangan har xil nizolarni hal qilish uchun universal hisoblanadi.

**“JST doirasida sog‘liqni muhofaza qilish sohasida ba’zi jihatlarni xalqaro-huquqiy tartibga solish va ularni ta’minlash choralari”** deb nomlangan uchinchi bobida muallif JSTda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi masalalari, farmatsevtik preparatlarni olish muammolari qanday hal qilinishi va yuqimli kasalliklarni tartibga solish uchun qanday choralar qabul qilinayotganligini batafsil tahlil qilgan.

2019-yil fevralda Addis-Abebada o‘tkazilgan ovqatlanish masalalari bo‘yicha xalqaro anjuman – Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va savdo masalalari bo‘yicha Xalqaro forumda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aytib o‘tildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi — inson organizmi uchun yetarli miqdorda iste'mol qilishda zaharli, kantserogen, mutagen, allergen bo'lmagan yoki boshqa zararli effektlarsiz mahsulotlar. Ushbu holatda himoya qilish obyekti bo'ib nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar hisoblanadi.

Bizga ma'lum bo'lishicha, oziq-ovqatlar mahsulotlari xavfsizligi tizimini amalga oshirishda JSTning roli haddan tashqari yuqori bo'lib, u keyinchalik o'sib boradi. Aynan ushbu tashkilot xalqaro savdo huquqining yangi modelini shakllantirib, a'zo davlatlarning ichki qonunchiligiga katta ta'sir ko'rsatadi. JSTda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi masalalari ikki asosiy bitim: 1995-yilgi Savdoda texnik to'siqlar bo'yicha Bitim (TBT Bitimi) va 1995-yilgi Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash bo'yicha Bitim (SFS Bitimi) bilan tartibga solinadi.

TBT sohasidagi choralar odatda quyidagi masalalarga tegishli:

- oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va dori preparatlarining markirovkasi;
- ho'l mahsulotlar sifatiga talablar;
- ho'l oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashga talablar;
- xavfli ximikatlar va zaharli moddalar markirovkasi va maxsus qadoqlanganligi.

SFS bitimi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi hamda hayvonlar va o'simliklarning holatini nazorat qilishga oid munosabatlarni tartibga soladi. Avvalambor, SFS Bitimi JST a'zolarining sog'liqni muhofaza qilishning milliy darajalarini o'rnatish va uni boshqarishga bo'lgan huquqini to'liq tan olishga qaratilgan. Bundan tashqari, SFS Bitimi har bir o'rnatilgan sanitar va fitosanitar talablar xalqaro savdoni o'zboshimchalik bilan, noqonuniy yoki "parda ortidagi" cheklash hisoblanmasligini kafolatlaydi. Qayd etish joizki, SFS Bitimi mamlakatlarga aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida savdoni cheklashga yo'l qo'yadi, lekin mamlakat tomonidan qabul qilingan choralar ilmiy asoslangan bo'lishi lozim. Nizo vujudga kelgan holatda nizolarni hal qiluvchi organlar quyidagilarni aniqlashi zarur:

- u aholining hayoti va salomatligini, hayvonotlar yoki o'simliklar muhofazasi uchun faqat zarur bo'lgan darajada qo'llanilganmi;
- yetarli ilmiy asos negizida choralar qabul qilinganmi;
- savdoni cheklash maqsadida cheklashlar kiritilganmi.

SFS Bitimi "Alimentarius Kodeksi" Komissiyasi va Xalqaro epizootik byuro (hayvonlar sog'ligi va hayvonlardan olinadigan mahsulotlarga tegishli standartlar) tomonidan tasdiqlangan standartlar va O'simliklarni himoya qilish bo'yicha xalqaro Konvensiyaga asoslanadi.

O'zbekiston Alimentarius Kodeksiga 2005-yildan va Hayvonlar sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha Butunjahon tashkilotiga 1992-yildan a'zo hisoblanadi. 1994-yil Urugvay raundi yakuniy hujjati doirasida qabul qilingan Intellektual mulk huquqlari bo'yicha bitim (TRIPS) JSTda farmatsevtik preparatlar ishlab

chiqaruvchilarning manfaatlarini universal xalqaro-huquqiy himoyalanihini ta'minlaydi.

TRIPS Bitimi Urugvay raundining maqsad va oqibatlari nuqtai nazaridan eng qarama-qarshi bitimlarining biri hisoblanadi. TRIPS Bitimini qo'llab-quvvatlovchi qator tadqiqotchilar va mutaxassislar farmatsevtik preparatlarning patentlar tomonidan himoya qilinishi texnologiya va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini yetkazib berish hajmlarining ortishiga olib kelishi zarur deb tasdiqlaydi, bu global darajada nou-xauning tarqalishini yaxshilaydi.

TRIPS Bitimiga kamroq optimizm bilan qaraydigan va hattoki unga qarshi bo'lganlar patentlangan dori vositalari narxlarining oshib borishini, ularni ishlab chiqarish sanoati rivojlangan davlatlarda to'planib borishi holati vujudga kelishi mumkinligini ta'kidlashadi.

Majburiy litsenziyalash usullardan biri bo'lib, uning yordamida TRIPS Bitimi asosiy dorilarga ega bo'lish va yangi dorilar ishlanmalari sohasida ilmiy tadqiqotlarni ilgari surish o'rtasida muvozanatni o'rnatishga urinmoqda. Ammo, TRIPS Bitimi 31-moddasini amalga oshirishda rivojlanayotgan davlatlar qanday qiyinchiliklarga duch kelganligini amaliyot ko'rsatadi.

2001-yil 14-noyabrda JST vazirlari konferensiyasida muhim hujjat – TRIPS va jamoat sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi Doxa deklaratsiyasi qabul qilindi. Bu mamlakatlarning xalqaro savdo munosabatlari tizimining sog'liqni saqlash manfaatlariga muvofiqligidan manfaatdor ekanligini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

JSTning Doxa deklaratsiyasi intellektual mulk tizimi doirasida sog'liqni saqlash sohasida siyosatni shakllantirishga yordam berdi. Deklaratsiya qayd etilishicha, TRIPS Bitimi rivojlanayotgan va nisbatan kam rivojlangan davlatlarga ta'sir qiluvchi ommaviy sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish bo'yicha nisbatan keng milliy va xalqaro harakatlarning qismi bo'lishi lozim. Deklaratsiyada "qulay imkoniyatlar" deb nomlanuvchi jamoaviy sog'liqni saqlash ehtiyojlarini qondirish uchun hukumatlarga ochiq bo'lgan aniq variantlar belgilangan edi. Bunday qulay imkoniyatlarning muhimligi ularning Barqaror rivojlanish maqsadlariga kiritilganidan so'ng tan olindi.

Majburiy litsenziyani joriy etish yuqumli kasalliklarni davolash usullari va vaksinalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi, ayniqsa a'zo davlat nuqtai nazaridan arzon sog'liqni saqlash texnologiyalaridan etarli miqdorda foydalanish boshqa yo'l bilan ta'minlanmagan holatlarda.

Birinchi marta 2003 yilda rad etish to'g'risidagi qaror orqali amalga oshirilgan va hozirda o'zgartirilgan trips shartnomasining 31bis moddasiga doimiy ravishda kiritilgan maxsus majburiy litsenziyalash tizimi sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish uchun dori importiga tayanishga majbur bo'lgan mamlakatlar uchun arzon dori vositalaridan foydalanishni osonlashtirish uchun ishlab chiqilgan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining pandemiyaning oldini olish, tayyorgarlikni ta'minlash va javob choralarini ko'rish bo'yicha Konventsiyasi (shartnomasi) loyihasini ishlab chiqish yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda katta

ahamiyatga ega. Bunday hujjatni qabul qilish zarurati dunyoda yangi viruslar va pandemiya oqibatlarini paydo bo'lishi bilan bog'liq edi.

Konventsiyaning maqsadi yangi yuqumli kasalliklar va viruslar avj olgan davrda barcha zarur himoya vositalari, tibbiy yordam, vositalar va vaktsinalardan teng foydalanishni ta'minlashdir.

**“JSTning sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro huquqiy normalarini O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish va uyg'unlashtirish”** deb nomlangan to'rtinchi bobda asosiy e'tibor sog'liqni saqlash sohasida JST xalqaro-huquqiy normalarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishning nazariy masalalari, ushbu sohaga oid O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va ularning JST xalqaro standartlariga muvofiqligi, O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zoligi jarayoni tahliliga qaratilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlarini himoya qilish bir qator ko'p tomonlama xalqaro bitimlarda o'z aksini topgan. Sohasidan kelib chiqib, sog'liqqa bo'lgan inson huquqlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish ikki: universal va mintaqaviy darajada amalga oshiriladi. Salomatlik sohasida inson huquqlari mustahkamlanishining birinchi darajasiga 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966-yilgi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, universal xarakterdagi boshqa asosiy xalqaro shartnomalar kiradi.

Ikkinchi darajaga mintaqaviy tashkilot ishtirokchisi bo'lgan davlatlar uchun majburiy bo'lgan mintaqaviy (Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va hokozolar doirasidagi) hujjatlar kiradi. Demak, MDH doirasida 1997-yilgi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlari fuqarolariga tibbiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi Bitim (MDH davlatlari aholisiga tibbiy yordam ko'rsatish sohasida o'zaro harakatni bundan buyon rivojlantirish va chuqurlashtirishga ko'mak berish maqsadida tuzilgan), 1992-yilgi Aholi salomatligini saqlash sohasida hamkorlik haqidagi kelishuv, 1998-yilgi OIV-infeksiya muammolarini hal etishda hamkorlik haqidagi kelishuv, 1992-yilgi Aholi salomatligini saqlash sohasida hamkorlik haqidagi Bitim amal qilmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlari fuqarolariga tibbiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi Bitim 1997-yil 19-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 406-son “Xalqaro bitimlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan.

Ikki tomonlama hujjatlardan Rossiya Federatsiyasi Hukumati va O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtasidagi sog'liqni saqlash, tibbiy ta'lim va ilm-fan sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitimni ta'kidlash joiz (Moskva, 2017-yil 5 aprel, 2017-yil 5 apreldan kuchga kirgan).

Salomatlikka bo'lgan huquq inson huquqlari majmuining ajralmas qismi bo'lib qoldi, u deyarli barcha davlatlarda, hattoki u rasman mustahkamlanmagan davlatlarda ham tan olinadi. O'zbekistonda insonning salomatlikka bo'lgan huquqi mamlakat ichki huquqining bir qismiga aylandi va normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlandi, ularda ushbu huquqni xalqaro-huquqiy standartlarga muvofiq amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar berilgan.

O'zbekistonda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu o'zgarishlar Konstitutsiyani isloh qilish, umumxalq referendumida qabul qilingan o'zgartirish va qo'shimchalar asosida amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan bizning bizning taklifimiz hisobga olindi va O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 48-moddasi quyidagi tahrir bilan to'ldirildi: "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.

Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'radi.

Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi".

Asosiy xalqaro shartnomalar qoidalari tibbiy yordam, shuningdek ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi O'zbekiston qonunchiligini shakllantirishning asosini tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi MDH, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida xalqlarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlashga ko'maklashuvchi tadbirlarga tashabbuskorlik qilmoqda va qo'llab-quvvatlamogda. O'zbekiston tomonidan aholi salomatligini muhofaza qilish va sog'liqni saqlash muammolariga tegishli ko'plab xalqaro shartnomalar, qoidalar, tavsiyalar va boshqa hujjatlar imzolangan va ratifikatsiya qilingan hamda ularning amaliy ijrosi ta'minlanmogda. Ular qatoriga Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Tamaki chekishga qarshi kurash bo'yicha JSSTning Hadli konvensiyasi, BMT Mingyillik deklaratsiyasi, Barqaror rivojlanish maqsadlari va sog'liqni saqlashga oid qator boshqa muhim xalqaro hujjatlar kiradi. Sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasidagi O'zbekiston qonunchiligi ushbu sohadagi xalqaro hujjatlarga to'laligicha mos keladi.

Prezident Farmoni bilan 2019-2025 yillarda mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kontsepsiyasi tasdiqlangan, u sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek aholi salomatligini himoya qilish sohasidagi Salomatlik-2020 mintaqaviy siyosati va 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror

rivojlanish maqsadlari doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda xalqaro-huquqiy normalarni milliy qonunchilikka joriy qilish jarayoni barqaror, tizimli xarakterga ega bo'lmoqda. Buning natijasida qonunlar va qonunosti hujjatlar xalqaro huquqning umum tan olingan tamoyillari va normalari talablariga mosligi nuqtai nazaridan to'liq qayta ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro konvensiyalarning ratifikatsiya qilinishi natijasida ularning barcha tamoyillari va normalari milliy qonunchilikka singdirilgan.

O'zining savdo siyosatini olib borishda to'liq erkinlikka ega har bir mamlakat JSTga ushbu mamlakat va JST o'rtasida kelishilgan shartlarda a'zo bo'lishi mumkin. JSTga qo'shilish O'zbekiston uchun samarali va ishonchli import uskunalari xarid qilish hisobidan sanoat sohalarida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning o'sish istiqbollari kengaytirishga imkon beradi. JSTga kirish o'zbek iqtisodiyotiga tovarlar va xizmatlarning jahon bozorlari bilan faol o'zaro harakatining rivojlanishiga imkon beradi. Buning natijasida, iste'molchilar yuqori sifatli mahsulotlarning keng assortimentiga ega bo'ladi.

JSTga a'zo bo'lgandan so'ng o'zbek kompaniyalariga to'laligicha Sanitariya va fitosanitariya choralari qo'llash bo'yicha Bitim (SFS), Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha Bitim (TRIPS) va JSTning boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlari to'liq tatbiq etiladi. O'zbekiston savdo nizolarini hal qilish mexanizmidan to'laqonli ishtirok eta oladi.

A.Mirsaidovning fikricha, JST talablariga muvofiq tashqi savdoni liberallashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqligini oshirishga, raqobat muhitini yaratishga, narxlarning buzilishini bartaraf etishga, resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga, xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan to'liq foydalanishga va shu asosda o'rta va uzoq muddatda millat farovonligini oshirishga xizmat qiladi .

S. Usmonova O'zbekiston uchun JST faoliyatining turli jihatlari bo'yicha keyingi qadamlar va tadqiqotlar jiddiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo bo'lishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Joriy masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun dolzarbligi, shuningdek, mamlakatning JSTga a'zo bo'lishi zarurligi yaqqol ko'rinib turibdi.

JSTga kirish jarayoni O'zbekistondan kamida 15 ta shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. JSTga kirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui, shuningdek, institutsional islohotlarni amalga oshirishni, ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda xalqaro shartnomaviy-huquqiy bazani rivojlantirishni, tashqi savdo rejimini yanada liberallashtirish va JSTning xalqaro normalari va qoidalari bilan izchil uyg'unlashtirish bilan milliy qonunchilikni takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

## XULOSA

"Sog'liqni muhofaza qilishga bo'lgan huquq sohasida JSTning xalqaro standartlari: xalqaro huquq va milliy qonunchilikning o'zaro munosabati" mavzusidagi ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. "Salomatlik" tushunchasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Ustavi Preambulasida "nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning bo'lmasligi, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida ta'riflangan. JSSTning salomatlik to'g'risidagi mazkur ta'rifi eng keng qo'llaniladigan bo'lib qolmoqda.

2. Sog'liqni saqlashning shakllanish tarixini ko'rib chiqib, yuridik adabiyotlarda sog'liqni saqlashga bo'lgan huquq va uning inson huquqlari xalqaro standartlari tizimidagi o'rnini belgilashda ijtimoiy, huquqni himoya qilish va ijobiy kabi turli yondashuv va kontsepsiyalar mavjud.

3. Sog'liqni saqlash huquqi irqi, yoshi, etnik kelib chiqishi yoki boshqa har qanday maqomiga ko'ra kamsitilmasdan amalga oshirilishi lozim. Kamsitmaslik va tenglik davlatlardan har qanday kamsituvchi qonunchilik, amaliyot yoki siyosatni tuzatish bo'yicha choralar qabul qilishni talab qiladi.

4. Sog'liqni saqlash huquqi – bu xalqaro-huquqiy hujjatlarda va milliy qonunchilikda mustahkamlangan huquq va erkinliklar majmuasi bo'lib, ular tibbiy xizmatlarni, dori preparatlarini, xavfsiz ichimlik suvini, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini, tibbiyot sohasida axborot va ta'limni, ayniqsa onlayn tizimlar orqali olishga, sanitariya sharoitlarini yaratishni ta'minlashga qaratilgan.

5. Sog'liqni saqlash huquqi bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan: 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Nizomi, 1965-yilgi Irqiy kamsitish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1979-yilgi Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya, 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, 1990-yilgi Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 2006-yilgi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshqalar. Ushbu hujjatlarning barchasida insonlarning muayyan guruhlariga taalluqli sog'liqni saqlash huquqini tasdiqlash va yanada aniqlashtirish ko'zda tutilgan.

6. Ushbu hujjatlarda insonlarning sog'ligini muhofaza qilishga bo'lgan huquqining mustahkamlanishi ham ushbu huquqlarning xalqaro-huquqiy tan olinishini va ishtirokchi-davlatlar uchun xalqaro majburiyat ekanligini bildirsa, ham sog'liqni saqlash sohasidagi inson huquqlarini ta'minlashning xalqaro mexanizmi hisoblanadi.

7. Bugungi kunda sog'liqni saqlash huquqi xalqaro huquqda ham, milliy qonunchilikda ham insonning muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Zero, dunyoda sog'liqni saqlashning hozirgi holatini to'g'ri tushunish va xolis baholash sog'liqni

saqlash sohasidagi xalqaro hamkorlikning muhimligini ko'rsatadi, bu uning rivojlanishi va hozirgi tendensiyalarini xolisona tahlil qilishga asoslanishi lozim.

8. Sog'liqni saqlash sohasida xalqaro standartlarning shakllanish tarixini ko'rib chiqib, uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

**1-bosqich 1851-yildan 1920-yilgacha** davrni qamraydi. Ushbu bosqichda 14 ta konferensiyalar natijasida Xoleraga oid xalqaro sanitar konventiya va Vabo bilan kurash to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Ushbu anjumanlarning muvaffaqiyati tufayli 1902 va 1907-yillarda Gigiena masalalari bo'yicha Xalqaro byuro va Panamerika sanitariya byurosi tuzildi.

**1920-yildan 1945-yillarni qamrab olgan 2-bosqichda** Millatlar Ligasi tuzildi, uning Ustaviga muvofiq mehnatning insonga qulay sharoitlarni ta'minlashiga doir norma mustahkamlandi va Millatlar Ligasi a'zo-davlatlari tomonidan kasalliklarning oldini olish va ular bilan kurashish uchun choralar qabul qilindi.

**3-bosqich – 1945-1946 yillar** – BMT Ustavi va JSST Ustavining qabul qilinishi. BMT Ustavining 55-moddasida sog'liqni saqlash sohasida xalqaro muammolarni hal qilishda ko'mak ko'rsatish mustahkamlangan.

**4-bosqich – 1966-yildan hozirgi vaqtgacha** – BMT tomonidan 1966-yilgi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1965-yilgi Irqiy kamsitishlar to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1979-yilgi Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya, 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, 1990-yilgi Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 2006-yilgi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Mingyillik Deklaratsiyasi va boshqalar qabul qilindi.

9. Hozirgi bosqichda dunyoda sog'liqni saqlash holatini tahlil qilish sog'liqni saqlashni rivojlantirishning quyidagi tendensiyalarini ajratish imkonini beradi: sog'liqni saqlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish; sog'liqni saqlashning globallasuvi; aholining ruhiy salomatligi rolininig oshishi; ekologik vaziyatning yomonlashishi; sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikning rivojlanishi.

10. Xalqaro huquq nazariyasida JST doirasida sog'liqni saqlash muammosining ilmiy ishlanganlik darajasini tavsiflab, ta'kidlash joizki, ilmiy tadqiqotlarda sog'liqqa bo'lgan huquqni tahlil qiluvchi umumiy masalalarga, JSTning paydo bo'lish tarixiga va uning hozirgi bosqichdagi huquqiy maqomiga, shuningdek sog'liqni saqlash sohasida xalqaro standartlarga katta e'tibor qaratilganligi va globallasuv, yangi tahdidlar va xavf-xatarlar davrida JST Bitimiga muvofiq sog'liqni saqlashning huquqiy tartibga solinishi masalalariga kam e'tibor qaratilmoqda.

11. Marrakesh kelishuviga kiritilgan JSTning ko'p tomonlama savdo shartnomalari orasida aholining keng qatlamlari salomatligiga real ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganlarini ajratish joiz, aynan: 1995-yilgi Xizmatlar savdosi haqidagi Bosh bitim (GATS); 1995-yilgi Sanitariya va fitosanitariya choralarni qo'llash haqidagi Bitim (SFS); 1995-yilgi Savdoda texnik to'siqlar haqidagi Bitim



(TBT); 1995-yilgi Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlarini haqidagi Bitim (TRIPS).

12. JST hozirda jahon miqyosida xalqaro savdoning huquqiy shartlari, tamoyillari va normalarini ishlab chiqishning haqiqiy markazlaridan biri hisoblanadi. Sog'liqni saqlashning turli jihatlarini JST vakolatiga kirmasa ham bu muammolarni hal qilish xalqaro savdoni tartibga solish uchun juda muhimdir. JST sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish uchun JSST va FAO kabi xalqaro tashkilotlardan yordam oladi.

13. JSST xalqaro sog'liqni saqlash sohasida dunyo mamlakatlari hamkorligini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadigan asosiy markaz hisoblanadi. Ushbu tashkilot savdo va sog'liqni saqlash sohalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi, masalan, JSTning tegishli kelishuvlarini huquqiy nuqtai nazardan moddama-modda batafsil tahlil qiladi. JSST ishtirokida JST uchun muhim bo'lgan qator hujjatlar ishlab chiqildi: Oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bo'yicha tamoyillar va tavsiyalar; Xalqaro tibbiyot-sanitariya qoidalari; JSSTning Tamakiga qarshi kurash bo'yicha hadli konvensiyasi (tamaki mahsulotlari savdosi uchun). JST va JSST vakillari o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar va muzokaralar ushbu siyosatlar o'rtasidagi o'xshashlik sohasini topishda muhim ahamiyatga ega.

14. JST va JSST sog'liqni saqlash sohasida to'rtta yo'nalishda hamkorlik qiladi:

**Birinchi yo'nalish** – intellektual mulk sohasi (TRIPS).

**Ikkinchi yo'nalish** – oziq-ovqat xavfsizligi va hayvonlar va o'simliklar salomatligi standartlari.

**Uchinchi yo'nalish** – savdodagi texnik to'siqlar (TBT).

**To'rtinchi yo'nalish** – xizmatlar (GATS).

15. FAO vakolatiga JST kelishuvlari bo'yicha majburiyatni bajarishga qaratilgan o'z a'zo-mamlakatlariga huquqiy xarakterdagi ko'mak ko'rsatish kiradi. 1995-yildan beri FAO huzurida JST bilan hamkorlik bo'yicha qo'mita faoliyat ko'rsatmoqda.

16. FAO va JST o'rtasidagi hamkorlikning muhim shakllaridan biri – xalqaro savdoga ta'sir etuvchi ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish bo'lib, ular monitoring bo'yicha FAO tuzilmalarini tizimlashtiradi. JST doirasida ko'p tomonlama savdoni xalqaro-huquqiy tartibga solishni yanada muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun turli yo'nalishlarda: sog'liqni saqlash, baliqchilik, o'rmon, qishloq xo'jaligi va boshqalar bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida olish talab etiladi.

17. Shartnomada tartib-qoidalarga nisbatan qat'iy rioya qilish nazarda tutilganiga qaramay, ish yuritishning asoslantirilgan uzaytirilishiga yo'l qo'yiladi. Biroq, bunday yengillik ushbu huquqni haddan tashqari suiiste'mol qilishga olib kelishi mumkin. Nizolarni tartibga solish tartibotining samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha vositalardan foydalanish maqbul yechim bo'lardi. Masalan, ekspert guruhlarini ish yuritishning dastlabki bosqichlarida yoki hatto uning boshlanishidan oldin ham faktik holatlarni oldindan baholash uchun, shuningdek, savdo siyosati sharhi mexanizmi faoliyatini tezlashtirishda faolroq jalb qilish.

18. JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun rag'bat bo'ladi va

kelajakda O‘zbekistonga xalqaro mehnat taqsimoti tizimida yanada qulayroq pozitsiyalarni egallash, kapital qo‘yilmalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar uchun mahalliy bozorning jozibadorligi orttirish imkonini beradi.

19. O‘zbekiston hukumati JSTga a‘zo bo‘lish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 2018-yil noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi va JST o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etildi. Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha idoralararo komissiya tarkibi tasdiqlandi, uning tarkibiga respublika vazirliklari va idoralari rahbarlari kirdi. 2019-yil noyabr oyida Bryussel shahrida Xalqaro hamkorlik va rivojlanish bo‘yicha Yevropa komissiyasi bilan “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi” texnik ko‘mak loyihalarini moliyalashtirish to‘g‘risida Bitim imzolangan edi.

20. O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lish jarayonini 1994-yilda boshlagan bo‘lib, hozirgacha davom etmoqda. Bu jarayon, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini JST standartlari talablariga mos takomillashtirish va uyg‘unlashtirishga asoslangan edi.

21. O‘zbekistonda inson huquqlarini ta‘minlashga, jumladan, insonning sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquqi sohasiga hamisha katta e‘tibor qaratiladi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston milliy qonunchiligi, birinchi navbatda, inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy normalarni milliy qonunchilik tizimiga joriy etish orqali doimiy ravishda takomillashtirilib, ularga muvofiq salomatlikni muhofaza qilish tizimi sohasiga oid qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy normalar majmui ishlab chiqildi.

22. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimining 2019-2025-yillarda rivojlantirish kontsepsiyasida tibbiy yordam sifati va undan foydalanish imkoniyatini oshirish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bilan kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

23. Sanitariya normalari va qoidalarida belgilangan mahsulot sifatini tartibga soluvchi milliy standartlar aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati oziq-ovqat mahsulotlarining iste‘mol xususiyatlarini belgilovchi hamda ularning inson hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsizligini ta‘minlovchi xususiyatlar majmui ekanligi belgilangan.

24. Dori-darmonlar bilan ta‘minlanish huquqi tibbiy yordam olish huquqining elementi bo‘lib xizmat qiladi va kasalliklarni kompleks davolash va oldini olishni ta‘minlaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasidan kelib chiqib, davlat asosiy turdagi dori vositalarining mavjudligi va sifatini kafolatlaydi.

## **II. Xalqaro-huquqiy asoslarni va O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflar**

1. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash universal, mintaqaviy va milliy miqyosdagi muhim yo‘nalishlardan biridir. Shu munosabat bilan Insonning sog‘lig‘ini muhofaza

qilishga bo'lgan huquqi to'g'risidagi universal konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish zarur bo'lib, unda insonning sog'lig'iga bo'lgan huquqi bilan bog'liq turli tushunchalarning ta'rifi, shuningdek, JSTning ushbu qoidalarni amalga oshirishda nazorat funktsiyalari o'z aksini topadi.

2. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun, birinchidan, yangi texnologiyalarning rivojlanishi munosabati bilan ikki tomonlama darajada va xalqaro tashkilotlar doirasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va takomillashtirish, ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish zarur.

3. Hozirgi bosqichda oziq-ovqat xavfsizligi masalalari inson salomatligiga bo'lgan huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq global muammolardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan insonning sog'lig'iga bo'lgan huquqini ta'minlash jihatlarining biri insonning xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan huquqidir. Shunga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro-huquqiy tamoyillar va normalarni ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

4. Dori vositalari va farmatsevtika vositalaridan foydalanish masalalari TRIPS shartnomasida tartibga solinadi. Ushbu Bitim qoidalarini joriy qilishda mamlakatlar milliy qonunchiligida dori vositalarini majburiy litsenziyalashni qo'llash vakolatlarini, shuningdek, patentlarning amal qilish muddati tugaganidan keyin genetik mahsulotlarning ichki bozorga kirishini rag'batlantirish choralarini ko'rish lozim.

5. Favqulodda vaziyatlarda tezkor axborot almashinuvini, odamlarning transchegaraviy harakatlanishini ta'minlash, eng ko'p jabrlangan davlatlarga yordam ko'rsatish, epidemiyalarga va boshqa masalalarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

6. Sog'liqni saqlashning ahamiyatidan kelib chiqib, sog'liqni saqlash huquqi tushunchasi ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasiga kiritildi, chunki bugungi kunda u insonning muhim va asosiy huquqlarining biri hisoblanadi, u ko'pincha inson va zamonaviy davlatning o'zaro munosabatlarini belgilaydi. Ushbu huquqning mazmuni salomatlikning shaxsiy va jamoat mulki sifatidagi ijtimoiy qiymati bilan aniqlanadi.

Sog'liqni saqlash va malakali tibbiy yordam olish huquqini to'g'ri amalga oshirish shaxs rivojlanishining zarur sharti, asosiy konstitutsiyaviy huquqlarning samarali amalga oshirilishining kafolati hisoblanadi.

7. "Oziq-ovqat xavfsizligi sifati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga JST shartnomasiga muvofiq ilmiy tamoyillarga asoslangan odamlar, hayvonlar yoki o'simliklarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha SFS choralarini ishlab chiqish, tasdiqlash va qo'llash to'g'risidagi moddani nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritish taklif etiladi.

8. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi sifati to'g'risida"gi qonuniga SFS shartnomasining 5-moddasiga muvofiq xavflarni baholash va sanitariya tadbirlari sohasida tegishli himoya darajasini aniqlashni nazarda tutuvchi qo'shimcha modda kiritish taklif etiladi.

9. O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat xavfsizligi sifati to‘g‘risida”gi qonuniga SFS shartnomasining 7 va 12-moddalariga muvofiq sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha axborot markazini tashkil etishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritish taklif etiladi.

10. Majburiy litsenziyalar berish shartlarini majburiy litsenziya asosida patentdan foydalanishga huquq taqdim etilgan holatda patent egasiga mutanosib kompensatsiya to‘lash miqdori va tartibini aniqlash mexanizmi, huquq egasini rag‘batlantirish tartibi va uni favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda unga tegishli patentdan foydalanish haqida xabardor qilishni nazarda tutuvchi “Patentlar to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

11. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1083-moddasiga quyidagi mazmundagi qo‘shimchalar kiritish taklif qilinmoqda: “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati fuqarolarning hayoti va sog‘ligi va manfaatlarini ko‘zlab patent egasining roziligisiz, muayyan mutanosib kompensatsiya to‘lovi bilan patentlardan foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli”.

12. SFS Bitimining 3-moddasiga muvofiq, a‘zo-davlatlar xalqaro tashkilotlar, xususan, Alimentarius Kodeksi komissiyasi faoliyatida ishtirok etishlari shart. Shu munosabat bilan, barcha sanitariya me‘yorlari va oziq-ovqat gigienasi qoidalarini Alimentarius Kodeksiga muvofiqlashtirish kerak.

13. Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish maqsadida ISO 9000 seriyasining asosiy xalqaro sifat standartlarini, Xalqaro birlashgan komissiya (JCI) tibbiy yordam ko‘rsatish standartlarini joriy etish va qo‘llash zarur.

### **III. JST doirasida sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar**

1. JSTga a‘zo davlatlar xalqaro savdo va sog‘liqni saqlash sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashlari kerak. JST doirasida a‘zo-davlatlarning davlat idoralari vakillari sog‘liqni saqlash maqsadlari o‘z navbatida savdoga ta‘sir qiladigan chora-tadbirlarga transformatsiya qilinishini batafsil aniqlashlari kerak.

2. Mintaqaviy darajada ishtirok etish va hamkorlik qilish uchun mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat nazorati bo‘yicha yagona ichki tuzilmani yaratishi kerak. Bu Alimentarius kodeksiga ham, JSTga ham ta‘sir qiladi, savdo standartlari va qoidalarini shakllantiradi va mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun ushbu tizim tomonidan taqdim etilgan vositalardan foydalanadi.

3. Tegishli protokollar va tahliliy mexanizmlar bilan oziq-ovqat xavfsizligi sohasida samarali xalqaro nazorat va mintaqalararo hamkorlikni muvofiqlashtirishning barqaror modelini ishlab chiqish zarur.

4. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog‘liq kasalliklar ustidan epidnazorati uchun xavflarni baholash va xavflarni boshqarish strategiyasini joriy qilish, milliy, mintaqaviy va xalqaro darajadagi tuzilmalarni yaratish kerak.

5. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun JST birinchi navbatda JSST va FAO bilan hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligi tashabbuslari bo‘yicha xalqaro muvofiqlashtiruvchi sifatida harakat qilishi kerak.

6. Jahon savdo qoidalari kontekstida JSTga a'zo davlatlar sog'liqni saqlash vazirliklarining majburiyatlari savdo muammolari va JST va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ko'rib chiqilayotgan masalalar to'g'risida keng qamrovli ma'lumot olish, shuningdek, real ma'lumotlarni taqdim etish, xalqaro savdo masalalarini nazorat qiluvchi idoralarga yordam berish kabi vazifalarni o'z ichiga olishi kerak.

7. Sog'liqni saqlash vazirliklari tibbiy-sanitariya muassasalari bilan muntazam maslahatlarni faolroq o'tkazish, shuningdek, savdo masalalari bilan shug'ullanuvchi o'z hamkasblari bilan imkon qadar yaqindan hamkorlik qilish, ayniqsa, jamoat salomatligi bilan bog'liq savdo shartnomalarini ishlab chiqish jarayoni bo'lishi zarur.

8. Davlatlar tomonidan GATS doirasidagi cheklovlarni joriy etishi COVID-19 pandemiyasi davrida teskari natija berdi. Shu munosabat bilan global pandemiya davrida xalqaro savdoni liberallashtirishga xizmat qiladigan "teskari istisnolar"ni joriy etish zarur.

9. Dunyo bo'ylab COVID-19 pandemiyasi kabi yuqumli kasalliklarning ommaviy tarqalishi davrida oziq-ovqat ta'minoti va savdoni uzluksiz ta'minlash maqsadida global miqyosda sa'y-harakatlarni birlashtirish va muvofiqlashtirish, shuningdek, JSTning FAO va JSST bilan o'zaro hamkorligi ham faollashtirish zarur.

10. JSST huzurida oziq-ovqat mahsulotlarining hozirgi va kelajak avlodlar salomatligiga ta'siri bo'yicha tibbiy nuqtai nazardan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish bilan shug'ullanadigan tuzilma yaratish taklif etilmoqda.

11. Yuqumli kasalliklarga global, mintaqaviy va milliy darajada qarshi kurashno kuchaytirish uchun doimiy infeksiyani nazorat qilishning yangi usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda uning asosida yuqumli kasalliklarning turli shtammlariga qarshi vaktsinalarni ishlab chiqish va yaratish zarur.

12. Shu bilan birga, samarali xalqaro hamkorlikning aniq usullarining yo'qligi va 2003-yilda atipik pnevmoniya kabi yangi yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi, 2006-2007 yillarda parranda grippining tarqalishi, OIV infeksiyasi va sil kasalligi bilan kasallanishning ko'payishi va COVID-19 koronavirus infeksiyasi global epidemiyalarga javob berish va sog'liqni saqlash huquqini ta'minlash xalqaro huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

13. Xalqaro tashkilotlar o'rtasida shaffof va samarali axborot almashinuvi COVID-19 va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi samarali kurashish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda JST kelishuviga JSTga a'zo-mamlakatlarning savdoga ta'sir etuvchi har qanday chora-tadbirlar, jumladan, eksport va importga ta'sir etuvchi yangi qoidalar va tartiblar, joriy qilingan eksport cheklovlari, tariflar va soliqlar to'g'risida, yangi bojxona qoidalari va tashish qoidalari bo'yicha JST kotibiyatini xabardor qilish majburiyatini kiritish taklif etilmoqda. Bunday ma'lumotlar ham JSTga a'zo-davlatlar, ham boshqa manfaatdor tomonlar uchun ochiq bo'lishi kerak.

14. Tibbiyotning ilg'or yutuqlarini diagnostika va davolash jarayoniga joriy etishning qoniqarsiz darajasi mamlakatimizda sog'liqni saqlashni mustahkamlash va globallashtirish taqdim etayotgan imkoniyatlardan faol foydalanishga to'stinlik qilmoqda, bu esa sog'liqni saqlash sifati bo'yicha aholining talab va ehtiyojlarini

qondirishga imkon bermaydi. Shu munosabat bilan sog‘liqni saqlash sohasidagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur, bu esa moddiy, ilmiy-texnikaviy bazani mustahkamlash va aholiga hamma uchun ochiq bo‘lgan yuqori sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

15. Umuman olganda, O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi jarayonida iqtisodiy sohani har tomonlama baholash asosida O‘zbekiston iqtisodiyotiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni oldindan ko‘rish va hisobga olish hamda JSTga a‘zo xorijiy davlatlar misolida tegishli choralarni ko‘rish zarur.

16. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzurida xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot va inson salomatligi xavfsizligi bilan bog‘liq muayyan qoida va tartiblarni belgilovchi vazirliklar bilan o‘zaro hamkorlik qiladigan JST axborot markazini tashkil etish zarur. Markazning maqsadi – axborot markazining harakatlari bilan qamrab olingan hududdagi amaldagi qonunlar, ma‘muriy qoidalar va tartiblar to‘g‘risida ma‘lumot olish uchun manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslarga maslahatlar berishdan iborat bo‘ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АЗХОДЖАЕВА РОЗА АЛТЫНОВНА**

**МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ВТО В ОБЛАСТИ ПРАВА НА  
ОХРАНУ ЗДОРОВЬЯ: СООТНОШЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА  
И НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА**

12.00.10 – Международное право

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc) по  
юридическим наукам

Ташкент – 2024 год

**Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций по номером № В2018.4.DSc/Yu88.**

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:**

**Саидов Акмал Холматович**  
доктор юридических наук, профессор,  
академик

**Официальные оппоненты:**

**Тошев Бобокул Норкобилович**  
доктор юридических наук, профессор

**Умарахунов Иркин Мирзахидович**  
доктор юридических наук, профессор

**Хакимов Равшан Тулкунович**  
доктор юридических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Центр повышения квалификации юристов  
при Министерстве юстиции Республики  
Узбекистан**

Защита диссертации состоится 31 мая 2024 года в 8:30 на заседании Научного совета DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1259) (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «13» мая 2024 года.

(протокол реестра № 6 от «13» мая 2024 года).

**Гулямов С.С.**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

**Махкамов Д.Н.**

Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, доцент

**Файзиев Ш.Х.**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор



## ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации (DSc))

### **Актуальность и востребованность темы исследования.**

Общемировые проблемы охраны здоровья и его связь с развитием современной экономики является одним из самых важных проблем современности, которая беспокоит каждое государство и все мировое сообщество. Хорошее здоровье для всех людей - это цель, на которую ориентируются многие международные организации, в число которых входит как Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ), так и Всемирная торговая организация (ВТО). По оценкам ВОЗ, ежегодно в мире из-за устойчивых к противомикробным препаратам микроорганизмов умирает 5 миллионов человек. «1 600 000 человек в день заболевают в результате употребления небезопасных пищевых продуктов. 340 детей в возрасте до 5 лет умирают каждый день в результате предотвратимых болезней пищевого происхождения.<sup>1</sup> Более того, около 2 миллиарда человек не имеют доступа к основным лекарствам, а 80% населения мира живет в странах с нулевым или очень ограниченным доступом к подконтрольным веществам для облегчения боли.<sup>2</sup> По оценкам ВОЗ, в 2021 году во всем мире было зарегистрировано 247 миллионов случаев малярии в 84 странах, что на 2 миллиона случаев больше, чем в 2020 году. В 2022 г. число случаев заболевания туберкулезом во всем мире составило 10,6 миллиона человек, включая 5,8 миллиона мужчин, 3,5 миллиона женщин и 1,3 миллиона детей»<sup>3</sup>. Все это представляет собой кризис здравоохранения беспрецедентного масштаба, оказывающий существенное влияние не только на здоровье человека, но и на экономику и общество в целом. Поэтому, на современном этапе, обеспечение права на охрану здоровья и сохранение экономической стабильности является одним из актуальнейших проблем.

В мире, на сегодняшний день в сфере охраны здоровья важное значение приобретает научно-исследовательская деятельность по вопросам обеспечения права на охрану здоровья. При этом изучение проблем обеспечения права на охрану здоровья в рамках ВТО имеет первостепенное значение, так как сегодня, здравоохранение непосредственно связано с экономикой и торговлей, в том числе с такими вопросами как обеспечение доступа к лекарственным препаратам, безопасным продуктам питания, медицинским товарам, медицинским услугам и т.д. В связи с этим имеет большое значение международное сотрудничество и разработка международных и национальных стратегий в сфере здравоохранения, а также имплементация международных стандартов в сфере прав человека в

<sup>1</sup> Всемирная организация здравоохранения. Безопасность пищевых продуктов. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/food-safety>

<sup>2</sup> Пятьдесят третья сессия Совета ООН по правам человека 19 июня – 14 июля 2023 г. Сборник передовой практики использования лекарств, вакцин и других товаров медицинского назначения в контексте права каждого человека на достижение наивысшего достижимого уровня физического и психического здоровья. Доклад Управления Верховного комиссара Организации Объединенных Наций по правам человека. <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/g23/069/16/pdf/g2306916.pdf?token=nKjyaCkKexf8xRjOTK&fe=true>

<sup>3</sup> World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals. © World Health Organization 2023. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240074323>

национальное законодательство. В сложившейся ситуации назрела необходимость всестороннего анализа проблемы соотношения и взаимодействия международных стандартов ВТО и национального законодательства в области обеспечения права на охрану здоровья. Правовая база международного торгового права и международные стандарты в сфере обеспечения права на охрану здоровья тесно взаимосвязаны, что часто приводит к противоречиям между стремлением способствовать развитию международной торговли и необходимостью охраны здоровья населения. Все это обуславливает актуальность темы настоящего исследования.

В Республике Узбекистан уделяется большое внимание международно-правовым аспектам охраны здоровья и вопросам вступления в ВТО. Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев на 78-ой сессии Генеральной ассамблеи ООН отметил: «Еще одна приоритетная для нас задача на пути либерализации нашей экономики – стать в ближайшем будущем полноправным членом Всемирной торговой организации»<sup>1</sup>. Так, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы от 28 января 2022 года определены приоритетные направления развития социальной сферы. Данная Стратегия предусматривает создание оптимальных условий для охраны здоровья населения, охват специализированной медицинской помощью в областях, районах и городах, а также запуск системы государственного медицинского страхования, развитие физической культуры и спорта, утверждение здорового образа жизни. Одной из основных целей Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы является ускорение процессов вступления во Всемирную торговую организацию, разработка соответствующих предложений по приведению национального законодательства в сферах технического регулирования, санитарных и фитосанитарных мер и защиты интеллектуальной собственности в соответствии с требованиями соглашений Всемирной торговой организации. Также, Стратегия «Узбекистан-2030» намечает приведение национального законодательства и правоприменительной практики в соответствии с правилами, нормам и соглашениям Всемирной торговой организации, что является еще одним основанием для изучения данной сферы.

Диссертационное исследование в определенной мере послужит выполнению задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии Узбекистан 2030», № УП-5590 от 7 декабря 2018 года «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан», на основании которого была утверждена Концепция развития системы здравоохранения Республики Узбекистан на 2019 – 2025 годы, Закона Республики Узбекистан № 265-І от 29 августа 1996 года «Об охране здоровья граждан», Закона Республики

---

<sup>1</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций. <https://president.uz/ru/lists/view/6677>

Узбекистан № 483-І от 30 августа 1997 года «О качестве и безопасности пищевой продукции», Закона Республики Узбекистан № 393 от 26 августа 2015 года «О санитарно-эпидемиологическом благополучии населения», Закона Республики Узбекистан № 800 от 3 ноября 2022 года «О стандартизации» и иных отраслевых актах законодательства.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике.** Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики І. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

